

**ADVOKAT STAJYORINING STAJIROFKA O'TASH TARTIBINI
SODDALSHIRISH MASALALARI****Xomidova Sarvinoz Yusup qizi***Toshkent davlat yuridik universiteti advokatlik faoliyati yo`nalishi magistranti*

Annotatsiya: *Advokat maqomiga ega bo'lish uchun stajirovka o'tash,, stajirovkaga qabul qilish tartibi, stajirovka rahbari va advokri xorijiy davlatlar qonunchiligi asosida tahlil qilingan hamda ularning ijobiy tajribasini milliy qonunchilikka joriy etish imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so`zlar: *advokat, advokat stajyor, stajirovka, advokat stajorning stajirovka rahbari*

Respublikamizda demokratik islohatlarni yanada kuchaytirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli kafolatlash, qonun ustuvorligi hamda ijtimoiy adolatni ta'minlashborasida samarali ishlar olib borilmoqda. Ushbu islohatlarning muhim yo`nalishlaridan biri advokatlik faoliyatini tashkil etish bilan bog`liq.

Advokat maqomiga ega bo'lish uchun stajirovka tashkil etish tartibi soddalashdi va bu tablabgorlarga yengillik bermoqda. Advokat stajorning samarali stajirovka o'tashi advokat maqomiga ega bo'lishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxsning stajirovka o'tash tartibiga o'zgartirishlar kiritilmoqda, endilikda advokat bo'lish uchun 2-yillik ish staji talabi bekor qilindi. Bu haqda prezident tomonidan imzolangan O'RQ-862 sonli qonunda nazarda tutilgan.ushbu qonunda advokat bo'lish uchun kamida 3 oy stajirovka o'tash va malaka imtixonini topshirish kerak bo'ladi. Ilgari advokat bo'lish uchun yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida 2-yillik ish stajiga ega bo'lish lozim edi.

Bir guruh olimlar, xususan, N.Mamedova va V.Golubevlarning "shaxs advokatlik tuzilmalarida olti oy davomida stajirovka o'tagan bo'lishi lozim, shu bilan birga, yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lish yoki advokatlik tuzilmalarida bir yildan ikki yilgacha stajirovka o'tashi kerak" degan fikrlariga qo'shilamiz.

Advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxsning stajirovka o'tash talabi bo'yicha A.V.Ragulin va M.S.Shayxullinlarning fikricha, bo'lajak advokatning kasbiy tayyorgarligi aynan stajirovka shaklida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Y.Soloveva ushbu olimlarning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda: "advokatlik kasbi asoslarini o'rgatishga qaratilgan stajirovka advokaturaga tayyorgarlikning majburiy bosqichi bo'lishi kerak", – deb ta'kidlaydi

Xorijiy mamlakatlar qonunchiligini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, stajirovka o'tash talabi ayrim davlatlarda (Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Tojikiston, Moldova, Belarus, Gruziya, Litva, Polsha) advokat maqomiga ega bo'lishga va advokatlik faoliyatini

amalga oshirishga ruxsat beruvchi litsenziya olish uchun belgilangan. O'rganilgan natijalar shuni, ko'rsatadiki, xalqaro tajribani inobatga olib, stajirovka o'tash talabini advokat maqomiga ega bo'lishga qo'yilgan talab sifatida belgilash kerak.

O'rganilgan xorij davlatlaridan ahamiyatli jihati shundaki, Turkiya Advokatlar uyushmalari shogirdlarga shogirdlik muddati davomida qarz beradi. To'lanishi lozim bo'lgan ssudalarning manbai advokatlar tomonidan manfaatdor organlarga taqdim etiladigan ishonchnomalarga qo'yiladigan daromad tamg'alari va to'lovlardan tushgan mablag'lar va ularning daromadlari qiymati hisoblanadi. Daromad shtamplari Turkiya Advokatlar uyushmasi tomonidan chop etiladi. To'lovlar to'g'risidagi qonun, har yili yangilanadigan ishonchnoma qiymatiga ham qo'shimcha besh foiz qo'llaniladi. Shu tarzda olingan mablag'lar advokat shogirdlarining umumiy tibbiy sug'urta mukofotlarini to'lash uchun ishlatiladi. Agar bunday mablag'lar yetarli bo'lmasa, ustama to'lovlari shogirdlik ssudasi fondidan o'tkazmalar hisobidan qoplanadi. Ushbu mukofotlar Turkiya advokatlar uyushmasi tomonidan to'lanadi. Shuningdek, ijtimoiy yordam va o'zaro qo'llab-quvvatlash fondi mavjud bo'lib, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy yordam va o'zaro yordam xizmatlaridan foydalanish uchun mablag'larni ta'minlash uchun Turkiya Advokatlar uyushmasi huzurida "Ijtimoiy yordam va o'zaro qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" tashkil etilgan bo'lib, ushbu jamg'arma ushbu Qonunning 27-moddasi ikkinchi bandida ko'rsatilgan daromadlarning yarmini oladi.

Milliy qonunchilikda stajirovka o'tash uchun advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxs bir nechta talablarga javob berish kerak. Xususan, O'zbekiston fuqarosi bo'lish, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish talablari mavjud. Shu bilan birga, ayrim shaxslarga cheklovlar belgilangan. Stajirovkaning asosiy vazifasi talabgorni advokat maqomiga ega bo'lish uchun tayyorlash, uning nazariy bilimlarini oshirish hamda kasbga oid bilim va ko'nikmalarini hosil qilishdir. Shundan kelib chiqib, advokat stajyorga rahbar sifatida zarur kasbiy fazilatlariga ega bo'lilishi lozim.

Xorijiy davlatlar, masalan, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belarus, Moldova, Qozog'iston, Turkmaniston, Armaniston, Litva tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, stajirovka rahbari bo'lish uchun advokat sifatida kamida besh yillik ish stajiga ega bo'lgan shaxs bo'lishi mumkin.

Qayd etish joizki, o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra, "Advokat stajirovka rahbari bo'lish uchun qancha muddat advokatlik faoliyati bilan shug'ullangan bo'lishi lozim deb o'ylaysiz?" degan savolga respondentlarning 64 nafari "3 yil", 7 nafari "4 yil", 32 nafari "5 yil va undan ortiq" deb, 4 nafari esa "javob berishga qiynalaman" deb javob berishgan.

Demak, advokat stajyoriga qo'yiladigan talablar va stajirovka o'tash tartibi talabgor advokat maqomiga ega bo'lishda katta ahamiyatga ega. Stajirovkani tashkil etish va advokat stajyorini moddiy va ijtimoiy himoyalash kafolatlarini ham takolillashtirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 13-son, 152-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.01.2018-y., 10/18/1928-1/0520-son, 13.12.2018-y., 10/18/1928-2/2305-son;
2. Рагулин А.В., Шайхуллин М.С. Современные проблемы и тенденции профессионального развития адвоката // Евразийская адвокатура, № 5(6) 2013., – С. 43.
3. Соловьева Ю. Анализ опыта регулирования правового статуса адвоката в Федеративной Республике Германия с позиций возможности его использования в Российской Федерации // Вестник университета имени Кутафина О.Е. (МГЮУ), № 11/2020. –С.226-227.
4. Salomov B., Davlyatov V., Pardayev S., Sayfiyeva G. O'zbekistonda advokatura: joriy holati va rivojlanish istiqbollari (tahliliy ma'lumot). - Toshkent: Baktria press, 2020.–B. 52.
5. Мамедов Н., Голубев В. Порядок приобретения статуса адвоката: опыт Российской Федерации и зарубежных стран // Юридические науки, Вестник КГУ., № 2, 2017. –С. 197.